



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

2. Pugachenkova L.K. SHaxrisabz, Termez, Xiva.
3. Materiali bytovoy texnicheskoy inventarizatsii po Xorezmskoy oblasti.

“BIBIXONIM MASJIDI” MADANIY MEROS YODGORLIGINING KOMPOZITSION YECHIMI

Kadirova Lobarxon Mirzaevna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 2- kurs magistrant

Yaxyayev Abdulla Abdujabborovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsent, (PhD),

Annotatsiya

Ushbu maqolada Bibixonim maqbarasi va jom’e masjidining tarixiy, me’moriy va madaniy ahamiyatini o’rganishga qaratilgan. Maqolada masjidning arxitekturasini, uning tarixiy ahamiyati va shaharning madaniy merosi haqidagi tushunchalarga to’xtalinadi.

Аннотация

Целью статьи является исследование исторического, архитектурного и культурного значения мавзолея и мечети Бибиханым. В статье рассмотрены понятия об архитектуре мечети, ее историческом значении и культурном наследии города.

Abstract

The article aims to study the historical, architectural and cultural significance of Bibikhanim's mausoleum and mosque. The article focuses on the concepts of the architecture of the mosque, its historical significance and the cultural heritage of the city.

Kalit soʻzlar

masjid, mehrob, gumbaz, minoralar, peshtoq, marmar, arksimon gumbazlar, naqshli toshlar, koshinkorlik.

Ключевые слова

мечеть, михраб, купол, башни, фронтоны, мрамор, арочные купола, узорчатые камни, облицовка.

Key words

mosque, mihrab, dome, towers, pediment, marble, arched domes, patterned stones, tiling.


Kirish

Bu masjid, Amir Temur jome masjidi bo'lishi bilan birga, xalk orasida Bibixonim (Saroy Mulkxonim) nomi bilan ham mashhur. El aro tarqalgan keng afsonaga ko'ra, bu masjidni Bibixonim yostikdoshiga muhabbatining ramzi sifatida barpo etgan. Aslida, bu inshootni Amir Temur Hindistonga yurishidan keyin qurdirgan. Masjid qurilishi 1399-yili boshlanib, besh yildan keyin tugallangan. Masjidga kirishdagi mahobatli katta peshtok ikki tomondan balandligi 50 metrli minoralar bilan qo'shilib, ajoyib manzara kasb etadi. Hovlining o'rtasidan esa Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulugbek farmoni bilan marmardan yasalgan va mukaddas Kuron qo'yiladigan lavh o'rin olgan. Temuriylardan so'ng xukm surgan boshka o'zbek xonlari davrlari (XVI-XVIII asrlar)da lavxdan xon ko'tarish marosimlarida foydalanilgan [1].

Asosiy qism


Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Samarqanddagi jom'e masjidi («Bibixonim» nomi berilgan) temuriylar davrining an'anaviy masjidлари rivojidagi yangicha yonda shuv bo'lgan. «Bu yerda misli ko'rilmagan ulug'vorlik timsoli bilan yonma-yon joylashgan minoralar, baland baraban ustiga o'rnatilgan gumbazlar, oldingi ulkan hajmli ustunlar o'rniga qo'yilgan yengil oq marmar ustunlarda, hovli orqali ko'zga tashlanadigan turli me'moriy hajm larning fazoviy uygunligi mavjud bo'lib, ularda masjid va qator tizilgan ayvonlar arkalari ochiq ko'rinadigan asosiy binolarning gumbazlari joylashgan» [2].

Hisob-kitoblarga ko'ra, kirish portalining kengligi 28,5 metrni, masjid- ning asosiy binosining kengligi 18 metrni (balandligi 40 m dan ortik) tashkil etgan. Qator ayvonlar 400 ta gumbaz bilan yopilgan. Vakt o'tishi bilan Saroy Mulkxonim madrasasi vayron bulib borgan, xonaqoh zali esa, bora-bora uning avlodlarining maqbarasiga aylangan.



**1-rasm. Samarqandning qadimiy yodgorliklari.
Bibixonim madrasasi. Rejalar, fasadlar kesimlar.**

Amir Temur jum'ga masjidi ham xuddi shunday holatga tushgan. Binoning muhim qismi zilzilalar va noqulay ob-havo sharoitida shikastlangan va asosiy portal bora-bora kulab tushgan (2000-yillarning boshlaridagi ta'mirlash paytida qayta tiklangan). Ko'rinib turibdiki, «estetik maqsadlar va konstruktiv imkoniyatlar doimo bir-biriga zid keladi. O'rta Osiyoda shunday tez-tez sodir bo'ladigan zilzilalar sharoitida bunday baland ko'tarilgan binolar bardosh bera olmaydi, shuning uchun masjid qurilganidan keyingi dastlabki yillardayoq vayron bo'lishiga olib kelgan. Qurilish paytida shoshqaloqlikka yo'l qo'yilishi, me'morlarning masjidning asosiy qismlarining konstruktiv mustahkamligini ta'minlashdagi xatosi, ayniksa ularning katta hajmini hisobga olgan holda tegishli yechimlarni topa olmaganligiga ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.




Bibixonim

madrasasi

kesimlari.

Masjid hovlisining sahni 63,8x76,0 m bulib, to'rt tomondan ra-vok va peshtoqlar bilan o'ralgan. Uning umumiy sahni 167x109 m, burchaklarida baland minoralar bo'lgan. Zilzilalar ta'sirida asta-sekin yemirilib vayron bulgan, faqat shim.-garbiy minoraning pastki qismigina saqlanib qolgan, bal. 18,2 m. Poydevori xarsang toshdan, devorlari pishiq g'ishtdan ishlangan (qalinligi 4,5 m).



4-rasm. Bibixonim madrasasi

Shimoliy fasadi.


Masjidning bir-biri bilan boglangan 6 ta me'moriy bo'laklari saqlanib qolgan. Bular hovlining to'rida mexrobli va baland peshtoqli bino, ikki yonida uning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga bo'lingan peshtoqi va shim.-g'arb tomonda minoradir. Ilgari bu bo'laklar 3 qator ok marmar ustupli, yengil ravoqli bos tirma-ayvonlar bilan birlashgan va ular tepasida gumbazchalar (400 ta) bo'lgan. Ustunlar 480 ta (oraligi 3,5 m) bo'lib, tagkursili, tanasi o'yma naqsh, tepasi kalla muqarnaslar bilan bezalgan (ular tuproq ostiga ko'milib ketgan, arxeologik qidiruv ishlari natijasida ustunlar, tagkursilar va mayda kosachalardan iborat muqarnasli ustun koshi topilgan). Peshtoqning keng yuzasi jilvali koshinlar, rang-barang, qalqon shaklidagi naqshlar bilan bezatilgan (hozir peshtoqning koshinlari tushib ketgan. Peshtoqning



3-rasm. Bibixonim madrasasi

G'arbiy fasadi

saqlanib qolgan qismi yorilib, devordan ajralib qolgan). Masjidning asosiy (mehrobli) binosi Amir Temur zamonasining me'moriy uslublari haqida to'liq tasavvur beradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Agar osmon gumbazi bo'lmaganda masjid gumbazi olamda yagona bo'lar edi», degan mubolag'asi bejiz emas. Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq va burchaklarida ikkita ko'p qirrali minora bor.




5-

rasm.

Bibixonim madrasasi 1404-yil

Peshtoq orqasidagi xona oddiy, ammo salobatli handasiy shakllar yig'indisi (kubsimon prizma, xonaning sakkiz qirrali qismi ustiga tushgan poygumbaz va gumbaz)dan iborat. Kubsimon prizma binoning asosiy hajmi bo'lib, tomonlari 14,6 m ga teng. Uning ustida xona devorlari bo'ylab o'tuvchi ravoqlardan iborat 8 qirrali prizma bor. Gumbazning doirali asosiga poygumbaz tutashtirilgan. Poygumbaz sirtiga Kur'on oyatlari bitilib, usti feruza koshinlar bilan pardozlangan gumbaz bilan berkitilgan (qoldig'i ko'rinib turibdi). Uning kirish tomonlari ham bosh peshtoq kabi rang-barang koshinlar bilan qoplangan, sopol g'ishtchalar yotiq. sirlangan rangli g'ishtchalar tik terilgan. Asosiy naqsh shakllari tiniq, lojuvard gishtchalardan terilib, ularning oraligi zangori g'ishtchalar, oq toshlar bilan to'ldirilgan. Oddiy handasiy shakllar va pechak kabi chirmashib ketgan yozuvlar bino bezagining tarkibiy qismini tashkil etadi. Mehrobli binoning baland minoralari sathi 4 burchakli kichik namoyonlarga bo'lingan. Handasiy shakl va islmiy naqshlar (turli ranglarda) namoyonlarni bezagan. Ular koshinkorlik uslubida ishlangan. Peshtoq devorining

yuzasi kesma koshin bilan qoplangan. Koshinkor bezakning har bir bo‘lagi, gullarning o‘zaklari, kosachalari, poyalari, gunchalari va barglari maxsus zamin-koshinlar parchasidan alohida kesib olingan, sopolchalar oraliq qoldirmay bir-biriga mos joylashtirilgan. Bu koshinlar (ayniqsa ko‘k ranglilari) tinik shisha kabi yaltirab turadi. Masjid yonidagi ikki kichik bino mexrobli xonaning asosan kichik hajmdagi takrori bulsada, kshlarning sod daligi va gumbazning kungiradorligi bilan farqlanadi. Masjidning ichki qismini pardoqlashda naqqoshlik bezaklari qatorida zarhal bo‘rtma naqshlardan keng foydalanilgan. Masjiddagi kup qirrali yulduzlar 3 qavatli xatlar o‘yilgan lavhalar jajji muqarnaslar. bilan bezalgan, hoshiyalar oq toshdan yunilgan. Tarixnaviy Ibn Arabshohning shahodat berishicha, Jome masjidi mahobatidan hayratga kelgan zamondoshlari «Obidalarimiz avlodlarga bizning kimligimizdan darak beradi» [3], deb gurur bilan jar solishgan ekan.



6-rasm. Bibixonim madrasasi xozirgi ko‘rinishi

1868 yilda podsho Rossiyasi qo‘shinlari Samarqandni qamal qilganda Bibixonim jom‘e masjidi tup o‘qidan vayron bo‘lgan. Vayrona holda bo‘lsa ham masjidning me‘moriy shakllari serhashamligi, bezaklarining nafisligi bilan kishi diqqatini jalb qilib kelgan. Undagi rang-barang naqshlarda o‘sha davr xalq ustalarining nozik didi va yuksak mahoratidan darak beradi [4].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan sung O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o‘tmishimizning boshqa me‘moriy yodgorliklari qatori bu masjidni tiklashga alohida e‘tibor berildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash» haqidagi qaroriga binoan me‘moriy majm5uada ta‘mir ishlari olib borilgan [5].

Xulosa

Buyuk ajdodlarimiz bunyodkorlik faoliyati natijasida yaratilgan Bibixonim me‘moriy majmuasi inshootlarining tarixiy-madaniy ahamiyati bugungi kunda nafaqat o‘zbek xalqi, balki butunjahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda. Ular hozirda YUNESKOning "Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Mazkur me‘moriy yodgorliklarni o‘rganish O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san‘ati tarixi, xususan, milliy me‘morchilik tarixining muhim jihatlarini yoritib berishda ham katta ahamiyatga egadir. Bibixonim maqbarasi nafaqat Samarqandning, balki butun O‘rta Osiyoning tarixiy va me‘moriy yodgorligi sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu me‘moriy obida nafaqat tarixiy xotira, balki madaniy meros sifatida ham e‘tiborga loyiqdir. Bugungi kunda maqbara sayyohlar va tarixiy tadqiqotchilar uchun bebaho qimmatga ega bo‘lgan joylardan biri hisoblanadi. Unga qarab, o‘sha davr madaniyati, san‘ati va ilm - fani haqida qimmatli ma‘lumotlarni olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar: Samarqand. Go‘ramir/ F. Abduxoliqov, R. Rtveladze, A. Hakimov, B. Bobojonov, A. Mansurov, va boshq. // O‘zMMB, 2023. 213-321 b.
2. Пугаченкова, Ремпель. История искусств. 1960. 267-б.
3. Zohidov P., Temur davrining me‘moriy qashkashoni, T., 1996.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Beshik-Gidrofizika. T., 2001. 14-15 b.